



O'ZBEK XALQ SHOIRASI ZULFIYA IJODINING LINGVOPOETIK TAHLILI XUSUSIDA

Sodiqova Dilafruz Azimjon qizi,
*TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va
xalqaro jurnalistika oliy maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya. XX- asr o'zbek adabiy muhitida ayollar she'riyatining tutgan o'rni beqiyos. Ayniqsa, mashhur shoira, noshir va tarjimon, o'zbek xalqining suyukli qizi Zulfiyaxonim ijodini o'rganish, she'rlarini lingvopoetik tahlilga tortish orqali o'sha davr ijodiy muhitini, o'zbek tili va uning nutqiy ifodalananish imkoniyatlarini, shoiraning estetik jihatdan qo'llagan barcha til vositalari, ijodkor individual uslubi va badiiy tafakkurini ohib berish bilan birga, XX-asrda yurtimiz ayollarining orzu- maqsadlari, muammoyu tashvishlari, botiniy dunyolarini tom ma'noda asl bo'yoqlar bilan qayta aks ettirgan bo'lamic. Shu kungacha Zulfiya ijodi bo'yicha ko'p asarlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bulardan eng yirigi S.Karimoving "Zulfiya asarlari lingvostilistikasi" nomli monografiyasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq Zulfiya serqirra ijodkor, she'rlarining ohangi o'ziga xos, tafakkur va tasavvur dunyosi keng shoira. Shuning uchun ham uning ijodini lingvopoetik jihatdan chuqur tahlil qilish, noyob qirralarini kashf etish oldimizda turgan dolzarb vazifadir.

Ushbu maqolada shoiraning "tabiat" haqidagi she'rlari lingvopoetik tahlilga tortilgan, stilistik xususiyatlari bayon etilgan. Ijodkor she'rlarida qo'llanilgan konnotativ ma'noni ifodalab kelgan til vositalarining xususiyatlari, badiiy san'atlar, ritorik so'roqlar, ko'chimlar va antonimiya, sinonimiya kabi turli til hodisalari tahlil qilinib, ijodidagi ayrim badiiy obrazlar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: *lingvopoetik tahlil, jonlantirish, sinestetik metafora, neologism, antonimiya, sinonimiya*

К ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОМУ АНАЛИЗУ ТВОРЧЕСТВ УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ ПОЭТесСЫ ЗУЛЬФИИ

Аннотация. Роль женской поэзии в узбекской литературной среде XX века бесподобна. Особенno, изучая творчество известной поэтессы, издателя и переводчика, любимой дочери узбекского народа Зульфии Ханым, подвергая лингвопоэтическому анализу её стихи, творческую среду того времени, узбекский язык и возможности его речевого выражения, эстетическая красота поэтессы. Раскрывая все языковые средства, индивидуальный стиль и художественное мышление художницы, мы оригинальными красками в буквальном смысле отразим мечты, цели, проблемы и переживания, внутренний мир женщин нашей страны XX века. До сих пор по творчеству Зульфии выполнено множество работ и научных исследований. Не будет преувеличением сказать, что самой крупной из них является монография С. Каримова «Лингвостилистика произведений Зульфии». Однако

Зульфия — плодовитая художница, тон её стихов уникален, она поэт с широким миром мысли и воображения. Поэтому перед нами стоит актуальная задача глубоко проанализировать его творчество с точки зрения лингвопоэтики, раскрыть его уникальные стороны.

В данной статье стихи поэтессы о «природе» подвергаются лингвопоэтическому анализу, описываются их стилистические особенности. Анализируются особенности используемых в стихотворениях поэта языковых средств, выражающих коннотативный смысл, художественные искусства, риторические вопросы, миграции, а также различные языковые явления, такие как антонимия и синонимия, а также детализируются некоторые художественные образы в его творчестве.

Ключевые слова: лингвопоэтический анализ, revitalизация, синестетическая метафора, неологизм, антонимия, синонимия.

TO THE LINGUOPoETIC ANALYSIS OF THE WORKS OF THE UZBEK FOLk POETRESS ZULFIYA

Abstract. *The role of women's poetry in the Uzbek literary environment of the twentieth century is incomparable. Especially by studying the work of the famous poetess, publisher and translator, beloved daughter of the Uzbek people Zulfiya Khanym, subjecting her poems to linguopoetic analysis, the creative environment of that time, the Uzbek language and the possibilities of its verbal expression, the aesthetic beauty of the poetess. Revealing all the linguistic means, individual style and artistic thinking of the artist, we will literally reflect with original colors the dreams, goals, problems and experiences, the inner world of women in our country of the twentieth century. Until now, many works and scientific studies have been carried out on Zulfiya's work. It would not be an exaggeration to say that the largest of them is S. Karimov's monograph "Linguistic Stylistics of Zulfiya's Works." However, Zulfiya is a prolific artist, the tone of her poems is unique, she is a poet with a wide world of thought and imagination. Therefore, we are faced with the urgent task of deeply analyzing his work from the point of view of linguopoetics and revealing its unique aspects.*

In this article, the poetress's poems about "nature" are subjected to linguopoetic analysis, and their stylistic features are described. The features of the linguistic means used in the poet's poems, expressing connotative meaning, artistic arts, rhetorical questions, migrations, as well as various linguistic phenomena such as antonymy and synonymy, are analyzed, and some artistic images in his work are also detailed.

Key words: linguopoetic analysis, revitalization, synesthetic metaphor, neologism, antonymy, synonymy.

Taniqli o‘zbek shoirasi Zulfiya 1915- yilning 1-martida Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug’ildi. 1922-yildan 1931-yilgacha muktabda, so’ng 1931 - 1934-yillar orasida qizlar bilim yurtida tahsil oldi. Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli

bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi. U 1935 - 1938- yillarda Til va adabiyot instituti aspiranti, 1938 - 1948-yillar mobaynida Bolalar nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953- yilgacha «Saodat» jurnalida bo'lim mudiri, 1953-yildan to 1980-yilga qadar, salkam o'ttiz yil davomida, shu jurnalning Bosh muharriri lavozimida ishlab keldi. Mashhur o'zbek shoiri Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, o'ziga xos she'riyati bilan minglab kitobxonlar qalbini rom etgan iste'dodli shoira Zulfiya 1996-yilning 1-avgustida vafot etdi.

Zulfiya— shoira, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. O'zbekiston xalq shoirasi (1965). Mehnat Qahramoni (1984). Uning ilk she'ri 1931 y. da "Ishchi" gaz. da bositgan. Dastlab 1932 y. "Hayot varaqalari" she'rlar to'plami nashr etilgan. Shundan keyin uning "Temirov" (1934), "She'rlar", "Qizlar qo'shig'i" (1939) she'riy kitoblari e'lon qilingan. Zulfiya she'riy ijodining porlashi "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944) va "Hulkar" (1947) to'plamlari bilan bog'liq. Ayniqsa, turmush o'rtog'I H. Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'لامи kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-y. lardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida haqqoniylit va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldstasi b-n boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bagishlangan turkum she'rlar ham yozdi ("Lolaqizg'aldoq", 1975).

Zulfiya ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning naqadar ziyrak, teran fikrli, ba'zan esa o'ychan, jo'shqin hissiyotlarga boy va shu bilan birga xalqparvar ijodkor bo'lganini ko'ramiz. Ayniqsa, asarlaridagi sadoqat va vafo g'oyalaring yetakchiligi hamma davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zulfiyaning badiiy olami mahorati haqida N. Karimov, I.G'afurov, A.Akbarov, O.Sharafiddinov, O.Hojiyeva, M.Ulug'ova, H.Umurov kabi adabiyotshunoslar bir qancha asarlar yozib qoldirganlar va Zulfiya ijodiga yuksak baho bergenlar.

Zulfiya olamni badiiy tadqiq qilar ekan, shu asnoda inson ko'nglidagi tuyg'ulari, ziddiyatlarni rang barang bo'yoqlarda ifodalaydi va insonlarni borliqdagi voqeahodisalarga nisbatan mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Uning ijodida "onaga muhabbat, ayol zotiga ehtirom" mavzulari alohida o'rin tutadi. Ozining "Ona ko'ksi", "Mening mehribon onaginam", "Ona", "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" kabi she'rlarida ham ayol mehrining buyuk qudrati, jasoratining beqiyosligi haqida bor ovozi bilan kuylaydi. Zulfiya tabiat suratida insonlar ko'nglini aks ettirmoqchi bo'ladi. Uning asosiy ilhom manbasi "bahor"faslidir. Bahor timsolida u hayotning go'zalligini, insonlar quvonch-u qayg'ularini, orzu-intilishlarini, tinchlik va osoyishtalikni ko'radi. Bahor muhabbat, tiriklik, baxt timsoli sifatida gavdalanadi.

Zulfiya buyuk ijodkor. Uning ijodi poetik jihatdan o'rganilgan asarlar talaygina, deyishimiz mumkin. Biroq uning she'riyati chuqur lingvopoetik tahlil qilinmagan. She'rlaridagi o'ziga xos ohangni yaratgan, konnotativ ma'noni ifodalab kelgan til vositalarining xususiyatlarini tahlil qilish, qo'llanilgan badiiy san'atlar, ritorik so'roqlarning o'rnini belgilash, lirkasidagi kolliziylar va ularning lingvistik tahlili yetaricha amalga oshirilmagan. Zero she'rni ham til, ham poetik jihatdan tadqiq qilish orqali o'sha davrning bo'yи bastini, shoining so'zlarda yashirgan dil asrorlarini kashf etgancha, she'rning bor nazokati, malohati bilan birga o'quvchi ko'z o'nggida to'liq namoyon etgan bo'lamiz. Shu tufayli ushbu maqolada shoiraning ijodidan o'rın olgan tabiat haqidagi she'rlari lingvistik va poetik, stilistik tahlilga tortildi.

Bugun tunda kelarmish, Bahor

Derazagandan mo'ralab asta,

Gul yuzingdan bo'lib shikasta,

Uzun qishga siltab qo'lini,

Ham qalbingdan boshlab yo'lini,

To'qqiz oyki, yelarmish bahor,

Bugun tunda kelarmish bahor...

Qoru muzni suvga g'arq qilib,

Izg'irinni butkul tark qilib,

Eshitgandek mening nolamni,

Guldastaga o'rab olamni –

Tushda boshing silarmish bahor,

Bugun tunda kelarmish bahor...

Gözallikni eltib jahonga,

Sano aytib har ötgan onga,

Jamolingga bōlib mahliyo,

Istarangdan olgancha ziyo,

Bizga iqbol tilarmish Bahor,

Bugun tunda kelarmish Bahor..

Unutilar hazonrez kuzak,

Tabassumeng yuzingga bezak.

Mehrlaring menga oğdirib,

Yomgırlarni yerga yoğdirib,

Suvlarini elarmish Bahor,

Bugun tunda kelarmish Bahor..

Hissiyotga töldirib dilni,

Kengaytirib kichik kōngilni,

Duolarga ijobat etib,

Tabiatni chamanzor etib,

Baxtimizdek kularmish Bahor,

Bugun tunda kelarmish Bahor..

“Derazangdan mo’ralab asta”- bahorning kirib kelishi” o’quvchi ko’nglida ajib bahoriy hislarni uyg’ota boshlaydi. Tasavvurimizda jonli, go’zal Bahor suratini namoyon qiladi. Ushbu she’r matni hissiy ifoda mazmunli matnlarga xos bo’lib, she’rda asosan tashxis san’atidan foydalanilgan, ya’ni faslga inson hatti-harakatlari ko’chirib o’tkazilgan.

“Gul yuzingdan bo’lib shikasta” bunda chehra “gul”ga o’xshatilmoqda. Chehraning chiroyidan shikasta bo’lgan bahor bandma band inson hatti harakatlarini sodir etayotganday gavdalantirilgan. Shoira she’rning boshidan oxirigacha tashxis san’atini maromida qo’llagan. Tashxis (jonlantirish)kitobxon ko‘z o’ngida predmetlarni jonlantirish orqali uning tasavvur doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Arablarda “Eng chiroyli she’r- eng yolg‘on she’rdir” degan gap bor. Shoirning mahorati ana shu “chiroyli yolg‘on” orqali o’quvchini ishontira olishdadir. Bunda boshqa san’atlar qatorida tashxisning o‘rni katta:

Tashxis san’ati boshqa she’riy san’atlar kabi kitobxonda estetik zavq hissini yanada oshiradi;

tashxis san’ati qo’llangan misralarda bir necha she’riy san’atlarning uyg‘un qo’llanishi obrazlilikni kuchaytiradi; tashxis muallifning hayolot dunyosi naqadar keng va boy ekanligidan dalolat beradi .“Uzun qishga siltab qo’lini” bunda “uzun qish” birikmasida konnotativ ma’no mujassam. Ya’ni qishning uzoq davom etganidan muallif bezovta bo’lib, ilhaq bahorni kutgan. U bahorni naqadar ulkan sog’inch va sevinch bilan kutganini ana shu satrlardan anglab olish mumkin. “*Uzun qish*”birikmasi sinestetik metaforani hosil qilgan. O’lchamni ifodalovchi sifat-“uzun”so’zi “yoqimsiz, uzoq vaqt ma’nosida kelgan. Ya’ni bir sezgi organi bilan idrok etiladigan tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan tushunchaga o’xshatilib, shu asosida ko’chma ma’no yuzaga keladi.

“Ham qalbingdan boshlab yo’lini” bunda bahor tabiatdan avval shoiraning qalbiga kirib kelganligi aytilmoqda. To’qqiz oyki, yelarmish bahor, ushbu satrlarda bahor shamolga qiyoslanmoqda. “Bugun tunda kelarmish bahor”...Bunda muallif yana jonlantirishdan mahorat bilan foydalanmoqda: bahor go’yo safarga ketgan kishi bo’lib, u bugun tunda qaytishini bashorat qilyapti. “Qoru muzni suvga g’arq qilib” badiiy tasvirida qor bilan muz sinonimik qatorni tashkil qilgan. Shoira ekspressivlikni oshirish maqsadida bir ma’noli (sovuj)so’zlarni bo’rttirib tasvirlaydi.

“Izg’irinni butkul tark qilib” ifodasi orqali esa bahor tabiat, iliq haroratli kunlarga ishora qilinadi. Shuningdek, ushbu jumla orqali bahor insonni jamiki mushkulotlardan xolos etuvchi “najotkor”i sifatida e’tirof etilayotganini ko’rishimiz mumkin.

“Eshitgandek mening nolamni, Guldastaga o’rab olamni “–satrlarida litota qo’llanilgan. Mubolag‘a yunoncha giperbola so’ zidan olingen bo’lib, bo’rttirish, orttirib ko’rsatish degan m a’noni bildiradi. Litota esa, uning aksi bo’lib, haddan tashqari kichraytirish ma’nosini bildiradi. Litota termini mumtoz adabiyotimizda tafrit san’ati deb yuritiladi. Butun borliqni guldastaga o’rab olinishi shoiraning yana bir badiiy kashfiyotidir.

“Tushda boshing silarmish bahor”, bu satrda silar emish to’liqsiz fe’li keltirilgan. Ekan, mish, emish kabi to’liqsiz fe’llar ma’no ifodalamaydi, lekin mustaqil fe’llarga qo’shilib turli ma’nolarni ifodalab keladi. Bahor bu yerda ham lirik qahramonning jonkuyar homiysiga o’xshatilmoqda, “hatto tushda ham atrofida parvona bo’layotgan” ezgulik timsoli sifatida gavdalantirilyapti. “Sano aytib har õtgan onga”, bandida ham tashxis san’ati

keltirilgan. Bahorning Yaratganga hamd-u sano aytishi ham juda chirolyi ma'naviy-ruhiy manzarani hosil qilgan.

"Istarangdan olgancha ziyo", bandini shoiraning badiiy kashfiyoti desak bo'ladi. Chunki "istara" so'zi o'zbek tiligagina xos so'zlardan biri bo'lib, uni "fayzli chehra" tushunchasi bilan tarjima qilish mumkin.

"Bizga iqbol tilarmish Bahor", bu satrda bahor baxt, muhabbat, go'zallik fasli ekanligiga urg'u berilmoxda. Bahor baxt tilayapti muallifga- ya'ni intoq san'ati qo'llanilyapti.

"Unutilar hazonrez kuzak, Tabasssuming yuzingga bezak" satrlarida shoira sog'inch, hijronlar ba'risi unutilib, yangi, go'zal hayot boshlanishini tasvirlamoqda.

"Mehrlaring menga oğdirib, Yomgırlarni yerga yoğdirib" satrida yog'ayotgan yomg'irlar-bahor mehr-u muruvvatining timsoli sifatida aytilgan. "Mehr" so'zi aslida ko'plik qo'shimchasi "-lar" bilan birga ishlatilmaydi. Lekin shoira mehrning miqdori nihoyatda yuksakligini ifodalamoqchi bo'lgan.

"Suвлarini elarmish Bahor, Bugun tunda kelarmish Bahor" –yana tashxis san'atidan foydalanib, chirolyi badiiy ifoda hosil qilingan. (Bahor suвлarini elakdan o'tkazayotgan kishiga qiyos qilingan)

Hissiyotga tõldirib dilni,
Kengaytirib kichik kõngilni.

Bu yerda gap bo'laklarining o'rinn almashinishi (inversiya) kuzatiladi. Inversiya she'riyatga xos tushuncha bo'lib, u ifodalilikni, ohangdorlikni va ta'sirchanlikni ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. "Kichik ko'ngilni kengayishi" esa mubolag'a bo'lib kelgan. Shoira hayratlar-u sevinchini ana shunday ifodalagan. Duolarga ijobat etib, Tabiatni chamanzor etib.

Bunda bahorning yer yuzini yashillanish, yasharishga burkab, borliqni chamanzorga aylantirgani haqida so'z boradi.

"Baxtimizdek kularmish Bahor" deganida muallif "baxti kulmoq" frazeologizmini mahorat bilan qo'llaydi.

Zulfiya she'riyatida ko'p ma'nolilikning turli ko'rinishlari, aniqrog'i, ko'chimning turli bosqichlari uchraydi. Xalqning jonli tiliga yaqinlik Zulfiya Isroilova ijodining o'ziga xos uslubidir. Zulfiya "Oltin kuz" she'rida yurtining har bir faslini o'zgacha mehr bilan sevishini aytadi hamda polisemantik so'zlardan o'rinli foydalanadi:

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,

Atlas tabiatli go'zal chog'ingni.

Ko'zni erkalagan chaman bog'ingni.

Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun.

Zulfiya Isroilova ijodida xususiy muallif ko'chimlari (muallif nutqi neologizmlari)ni ham ko'ramiz:

Dalada paxtalar kumushi porlab,

Momiq yuzlarini quyoshga tutsa,

Terimchi chechanlar etaklab, qoplab

Tog‘day xirmonlarga keltirib to‘ksa. (“Oltin kuz”)

Ma’lumki, paxtaning kumushga o‘xshatilishi (rang o‘xshashliligi) ancha keng qo‘llanadi. Shoira shu asosda “kumush”ning yana bir assotsiyatsiyasini uyg‘otadi: paxtalarning ochilishi kumushning porlashiga o‘xshatiladiki, go‘yo paxtalarning ochilishi bilan hammayoq kumushdek nur sochib porlab ketdi. Bundan shu narsa anglashiladiki, leksik metaforaning mazmuni bir so‘z doirasida anglashilishi mumkin bo‘lsa, matn ichidagi metaforaning ma’nosi matndagi boshqa so‘zlar bilan aloqada oydinlashadi¹⁵. Umuman, shoira she’riyatida ko‘chishning turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Har bir ko‘chim mantiqli va asosli ekanligi kuzatiladi.

Tilda sinonimlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Badiiy matndagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq sinonimdan ifodalananayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo‘lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq sinonimik birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg‘un holda qo‘llashidir. Zulfiya esa o‘z ijodida bir vaqtning o‘zida ayni bir misrada ham sinonim so‘zni, ham antonim so‘zni qo‘llay olgan ijodkordir. Buni uning “Baxtim bor ajoyib kishilar aro” she’rida ko‘ramiz:

Baxtim bor: ajoyib kishilar aro
Tug‘ilib gurkirab... keksayar umrim,
O‘shalar she’rimga baxsh etgan sado,
Hayotim yo‘lini yoritgan nurim.

Ushbu misralarda shoira “tug‘ilmoq” hamda “gurkiramoq” so‘zlarini darajalash asosida sinonimik munosabatga kiritadi, shuningdek, sinonimlarga qarama-qarshi holatda “keksaymoq” zid ma’noli so‘zni qo‘llash bilan she’rning badiiylik darajasini oshiradi.

Antonim hodisasi o‘zbek tilshunosligida XX asrda keng tadqiq etilgan¹⁶. Shuningdek, mazkur hodisa uchun amaliy material bo‘lib xizmat qiladigan lingvistik lug‘at, ya’ni antonimlar lug‘ati ham tuzilgan.¹⁷ Masalan, Zulfiyaning “Iqrorga vaqt yetdi” she’ridagi quyidagi misralarida but – chala antonimligi kuzatiladi:

O‘ylasam, hayotga o‘zni bag‘ishlab,
Burchlar savalabdi misoli jala.
Mahram qalamimni tishimda tishlab,
Yashabman, ishlarim goh but, goh chala!

Antonimik munosabat odatda bir turkum so‘zlarda bo‘ladi. Shunga ko‘ra antonimiya sifat, ravishlarda ko‘p. Masalan, “Bahor keldi seni so‘roqlab”she’rida buning yorqin ifodasini ko‘rish mumkin.

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,

¹⁵ Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.–Самарқанд:СамДУ нашри, 2006.

¹⁶ Исабеков Б.О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. АКД. – Т., 1973; Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Т.: Фан, 1977

¹⁷ Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли лугати. – Т.:Ўқитувчи, 1980.

Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?

To'rtlikning ohirgi 3 qatorida "nechun"so'zi badiiy takror sifatida qo'llanilgan. "qora va oq" sifatlari esa antonimiyani hosil qilgan.

Zulfiya o'z she'rlerida sinonim hamda antonim so'zlardan mohirona foydalangani, bu she'rlerining ta'sirchanligi va badiiyatini yanada oshirgan.

Ulkan iste'dod, buyuk dard, insonparvarlik, hayotsevarlik va ezgu g'oyalar bilan sug'orilgan ana shunday badiiy asarlar asrlar osha qalblarimizda mangu yashaydi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Asarlar : [3 jildlik] / Zulfiya. – Adabiyot va san'at nashr. – 416 b. 1986 yil.
2. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
3. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.
4. Qayumov A. Shoira Zulfiya. Hayoti va ijodi haqida ocherk. O'zadabiyinashr, Toshkent, 1975.
5. Султанова м., Зульфия, Ташкент, 1985; Ибрагимов М., Создатель солнечной поэзии, Ташкент, 1986.
6. Saylanma / Zulfiya. – Toshkent : Sharq nashr. – 272 b.
7. <https://tafakkur.net/zulfiya>.
8. kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xotiram-siniqlari-zulfiya.html
9. <https://adiblar.gitbook.io/adiblar/zulfiya-isroilova>